





TOSHKENT VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
(dastlabki ma'lumotlar)



Toshkent viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi 1 345,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 2,7 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 115,5 mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 82,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 230,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 105,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 83,2 mlrd. so'mni (2019-yilning shu davriga nisbatan 3,4 % ga kamaygan) tashkil etdi.

HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI
(mlrd. so'm)





**CHAKANA
SAVDO
AYLANMASIDA
YIRIK
KORXONALAR,
KICHIK BIZNES
VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARI-
NING HAJMI
VA O'SISH
SUR'ATLARI**
(mlrd. so'm, foizda)

| | Jami | % | Yirik korxonalar | % | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik | % |
|--------------------------|----------------|--------------|------------------|-------------|---------------------------------------|--------------|
| Toshkent viloyati | 1 345,9 | 102,7 | 115,5 | 82,3 | 1 230,4 | 105,1 |
| <i>Shaharlar:</i> | | | | | | |
| Nurafshon | 35,9 | 103,8 | 0,8 | 602,4 | 35,1 | 101,9 |
| Olmalik | 117,7 | 102,3 | 18,8 | 115,1 | 98,9 | 100,1 |
| Angren | 65,8 | 101,5 | 4,8 | 119,8 | 60,9 | 100,3 |
| Bekobod | 93,4 | 107,0 | 15,6 | 83,6 | 77,8 | 113,3 |
| Ohangaron | 24,3 | 100,9 | 3,5 | 66,8 | 20,9 | 110,2 |
| Chirchiq | 72,3 | 104,4 | 7,1 | 61,0 | 65,2 | 113,2 |
| Yangiyo'l | 82,3 | 100,6 | 2,9 | 106,2 | 79,4 | 100,4 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | |
| Oqqo'rg'on | 55,1 | 102,9 | 0,8 | 103,3 | 54,3 | 102,9 |
| Ohangaron | 22,1 | 107,9 | 3,6 | 497,4 | 18,5 | 93,7 |
| Bekobod | 29,9 | 104,9 | 1,1 | 210,3 | 28,8 | 102,9 |
| Bo'stonliq | 56,3 | 100,5 | 1,8 | 52,2 | 54,5 | 103,7 |
| Bo'ka | 44,6 | 102,4 | 0,9 | 51,9 | 43,7 | 104,5 |
| Quy Chirchiq | 23,1 | 103,7 | 0,3 | 80,3 | 22,8 | 104,1 |
| Zangiota | 176,3 | 102,6 | 6,1 | 71,9 | 170,2 | 104,2 |
| Yuqori Chirchiq | 46,6 | 101,1 | 2,3 | 23,2 | 44,3 | 122,3 |
| Qibray | 87,4 | 101,2 | 4,9 | 63,5 | 82,5 | 105,0 |
| Parkent | 51,6 | 102,4 | 0,8 | 40,3 | 50,8 | 104,9 |
| Piskent | 31,9 | 100,3 | 1,0 | 80,7 | 30,9 | 101,1 |
| O'rta Chirchiq | 24,1 | 103,9 | 3,8 | 105,2 | 20,3 | 103,6 |
| Chinoz | 61,0 | 104,7 | 17,4 | 101,4 | 43,6 | 106,1 |
| Yangiyo'l | 62,8 | 103,0 | 1,8 | 60,7 | 61,0 | 105,2 |
| Toshkent | 81,3 | 101,2 | 15,2 | 73,4 | 66,1 | 110,9 |

2019-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Ohangaron, Bekobod va Chirchiq shaharlari hamda Bekobod va Chinoz tumanlarida qayd etildi.




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

(hajmi va o'sish sur'atlari)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 2019-yilning mos davriga nisbatan 17,7 % ga kamaydi va 115,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 8,6 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1 230,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvaroyiga nisbatan 5,1 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 91,4 % ga teng keldi.



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI
(hajmi mlrd. so'm)





**TOSHKENT
VILOYATI
BO‘YICHA AHOLI
JON BOSHIGA
NISBATAN
CHAKANA
SAVDO TOVAR
AYLANMASI
HAJMI
(ming so‘m)
VA O‘SISH
SUR‘ATLARI
(foizda)**


2020-yilning yanvar oyi holatiga o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 460,9 ming so‘m (2019-yilning mos davri bilan solishtirganda 1,3 % ga o‘sdi) va viloyatning barcha hududlarida aholi jon boshiga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasi ko‘rsatkichlari o‘shish sur‘atlari kuzatildi.

| | Hajm, ming so‘m | O‘shish sur‘atlari, % da |
|--------------------------|----------------------------|-------------------------------------|
| Toshkent viloyati | 460,9 | 101,3 |
| <i>Shaharlar:</i> | | |
| Nurafshon | 739,5 | 102,5 |
| Olmaliq | 905,0 | 100,9 |
| Angren | 351,5 | 100,2 |
| Bekobod | 983,1 | 105,5 |
| Ohangaron | 155,5 | 100,1 |
| Chirchiq | 1933,0 | 102,4 |
| Yangiyo‘l | 1371,4 | 99,6 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Oqqo‘rg‘on | 529,1 | 101,3 |
| Ohangaron | 233,0 | 106,4 |
| Bekobod | 191,4 | 103,3 |
| Bo‘stonliq | 335,0 | 99,5 |
| Bo‘ka | 358,2 | 100,8 |
| Quy Chirchiq | 216,2 | 102,2 |
| Zangiota | 899,1 | 101,4 |
| Yuqori Chirchiq | 347,4 | 99,5 |
| Qibray | 439,3 | 99,9 |
| Parkent | 336,2 | 100,6 |
| Piskent | 318,6 | 99,0 |
| O‘rta Chirchiq | 162,5 | 102,1 |
| Chinoz | 460,5 | 103,2 |
| Yangiyo‘l | 301,7 | 101,5 |
| Toshkent | 454,3 | 99,8 |

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganida eng yuqorisi Chirchiq (1933,0 ming so‘m), Yangiyo‘l (1371,4 ming so‘m) va Nurafshon (739,5 ming so‘m) shaharlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Buning sababi, ushbu hududlarda yirik savdo va sanoat tashkilotlari joylashgan.



TOSHKENT VILOYATI HUDUDLARI KESIMIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI O‘SISH SUR‘ATLARI
(foizda)



HUDUDLAR KESIMIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI HAJMI
(mlrd. so‘m)

2020-yilning yanvar oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,5 % ni tashkil etib, 33,6 mlrd. so‘mga yetdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 8,3 % o‘rdi. Bunda jami savdo aylanmasining 71,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to‘g‘ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarida savdo aylanmasining nisbatan yuqori ko‘rsatkichi Ohangaron shahriga (viloyatning jami tovar aylanmasiga nisbatan 14,3 %) to‘g‘ri kelmoqda. Nisbatan yuqori hajm Chirchiq (5,3 %), Olmalik (6,9 %) va Angren (3,7 %) shaharlarida kuzatildi.

**HUDUDDLAR
KESIMIDA
ULGURJI SAVDO
TOVAR
AYLANMASI
HAJMI
(mlrd. so'm)
VA O'TGAN
YILNING SHU
DAVRIGA
NISBATAN O'SISH
SUR'ATLARI
(foizda)**

| | Jami | % | Yirik korxonalar | % | Kichik biznes | % |
|--------------------------|--------------|--------------|------------------|-------------|---------------|--------------|
| Toshkent viloyati | 647,8 | 118,0 | 349,0 | 53,9 | 298,9 | 104,4 |
| <i>Shaharlar:</i> | | | | | | |
| Nurafshon | 3,3 | 103,1 | - | - | 0,6 | 102,5 |
| Olmaliq | 14,3 | 110,4 | - | - | 4,2 | 103,9 |
| Angren | 4,9 | 104,1 | - | - | 2,0 | 99,9 |
| Bekobod | 7,1 | 104,5 | - | - | 7,1 | 103,5 |
| Ohangaron | 4,3 | 103,7 | - | - | 3,1 | 102,8 |
| Chirchiq | 14,3 | 110,5 | 0,8 | 3,7 m. | 2,5 | 102,9 |
| Yangiyo'l | 18,7 | 106,4 | - | - | 70,2 | 104,3 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | |
| Oqqo'rg'on | 0,6 | 102,5 | - | - | 10,9 | 103,5 |
| Ohangaron | 4,2 | 101,6 | - | - | 29,2 | 104,9 |
| Bekobod | 3,3 | 88,3 | 1,3 | 74,5 | 10,6 | 105,6 |
| Bo'stonliq | 7,1 | 103,5 | - | - | 3,6 | 102,7 |
| Bo'ka | 3,1 | 102,6 | - | - | 3,2 | 103,4 |
| Quy Chirchiq | 2,5 | 102,6 | - | - | 5,7 | 103,2 |
| Zangiota | 71,2 | 105,5 | 1,0 | 5,1 m. | 18,4 | 106,7 |
| Yuqori Chirchiq | 10,9 | 101,9 | 0,1 | 26,9 | 65,1 | 103,8 |
| Qibray | 235,3 | 169,3 | 206,1 | 185,4 | 3,3 | 103,5 |
| Parkent | 10,6 | 105,6 | - | - | 10,9 | 103,9 |
| Piskent | 3,6 | 102,3 | - | - | 4,9 | 104,3 |
| O'rta Chirchiq | 113,6 | 93,9 | 110,4 | 93,6 | 7,1 | 104,8 |
| Chinoz | 30,7 | 93,7 | 25,1 | 91,9 | 4,3 | 103,7 |
| Yangiyo'l | 18,5 | 106,9 | - | - | 13,4 | 105,9 |
| Toshkent | 65,9 | 102,8 | 0,8 | 6,2 | 18,7 | 106,4 |

2019-yilning mos davriga nisbatan ulgurji savdo tovar aylanmasi yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Chirchiq shahrida (110,5 %), Olmaliq shahrida (110,4 %) va Yangiyo' l tumanida (105,9 %) kuzatildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi
Tel.:(71) 230-86-59**